

BUXORO VILOYATIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

2023- YIL YANVAR-DEKABR



Buxoro viloyatida 2023- yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Raqamlar:



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar -

31 301,2 mlrd. so‘m


O‘sish sur’ati -

133,4 %

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **31 301,2 mlrd. so‘mni** yoki o‘tgan yilga nisbatan **133,4 %** ni tashkil etdi. Moliyalashtirishning manbalari bo‘yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o‘zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi – **20 127,7 mlrd. so‘m** yoki **64,3 %** i xorijiy investitsiyalari va kreditlari, **8 088,8 mlrd. so‘m**, yoki **25,9 %** i korxonalar va aholining o‘z mablag‘lari hisobiga to‘g‘ri keladi.

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar taqsimlanishi

2023- yil yanvar-dekabr oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan – **3 293,9 mlrd. so‘m**, jami investitsiyalardagi ulushi **10,4 %** ni, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa **28 007,3 mlrd. so‘m**, jami investitsiyalardagi ulushi **89,6 %** ni tashkil qildi.



■ markazlashgan ■ markazlashmagan

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi


	Jami investitsiyalar, mlrd. so'mda	Shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan, % da)						
		Respublika byudjeti	Korxona va tashkilot mablag'lari	Aholi mablag'lari	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
Jami viloyat	31 301,2	4,1	16,8	9,1	5,2	64,3	0,2	0,3
Buxoro sh	6 073,4	6,9	31,3	7,5	14,4	38,1	0,1	1,7
Kogon sh	393,2	5,6	10,0	13,0	1,7	69,7	-	-
Olot	1 116,8	7,6	9,0	20,7	2,3	60,4	-	-
Buxoro	2 148,3	3,9	35,5	10,2	3,6	46,8	-	-
Vobkent	1 041,7	8,2	16,4	19,7	9,6	46,1	-	-
G'ijduvon	4 704,1	1,5	2,0	7,4	3,2	85,2	0,7	-
Kogon	2 043,3	2,2	10,0	9,1	8,9	69,8	-	-
Qorako'l	1 250,8	4,8	18,2	17,1	-	57,0	2,9	-
Qorovulbozor	3 319,4	0,2	10,7	1,5	0,3	87,3	-	-
Peshko'	4 161,7	1,5	1,1	5,8	0,6	91,0	-	-
Romitan	4 012,4	5,8	28,1	6,1	1,9	58,1	-	-
Jondor	631,6	9,1	21,3	33,8	8,2	27,6	-	-
Shofirkon	404,5	14,8	23,1	42,0	10,0	10,1	-	-

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish
manbalari bo'yicha tarkibi**

	Mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Jami	31 301,2	133,4	100
Markazlashgan:	3 293,9	116,3	10,4
Respublika byudjeti	1 290,5	115,8	4,1
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	102,4	538,6 m.	0,3
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	74,4	51,9	0,2
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan xorijiy kreditlari	1 826,6	116,1	5,8
Markazlashmagan:	28 007,3	135,7	89,6
Korxona mablag'i	5 259,3	103,9	16,8
Aholi mablag'i	2 829,5	107,5	9,1
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	18 301,1	151,2	58,5
Tijorat bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari	1 617,4	189,8	5,2


Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumi hajmiga nisbatan moliyalashtirish manbalarining tarkibi, % da

Markazlashgan




Markazlashmagan

- To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
- Korxonalarining o'z mablag'lari
- Aholi mablag'lari
- Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha **13 616,8** mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning **43,5** % ni tashkil etdi, mashina, uskunalar va jihozlarni xarid qilishga **14 783,9** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **47,2** % i) va boshqa xarajatlarga **2 900,5** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **9,3** % i) investitsiyalar o'zlashtirilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning jamiga nisbatan ulushi, % da




Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqoridaagi diagrammada ko'rsatib o'tilganidek, elektr energiyasi va gaz ta'minoti yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan **11 002,1 mlrd. so'm** yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning **35,1 %** i o'zlashtirilgan.

Shuningdek asosiy kapitalga investitsiyalarning eng ko'p investitsiya hajmlari tashish va saqlash faoliyati **16,4** (yoki **5 129,9 mlrd. so'm**), ishlab chiqaradigan sanoatiga **15,4 %** (yoki **4 815,7 mlrd. so'm**), tog'-kon sanoatiga **7,4 %** (yoki **2 317,5 mlrd. so'm**), uy-joy qurilishiga **6,8 %** (yoki **2 125,1 mlrd. so'm**), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **5,2 %** (yoki **1 613,5 mlrd. so'm**), qurilishga **3,5 %** (yoki **1 089,6 mlrd.**

so'm), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalarni tamirlashga **2,9** % (yoki **918,3** mlrd. so'm), ta'limga **1,1** % (yoki **343,7** mlrd. so'm), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga **1,1** % (yoki **339,8** mlrd. so'm), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilishga **0,9** % (yoki **266,4** mlrd. so'm), boshqa faoliyat turlariga **4,2** % (yoki **1 339,6** mlrd. so'm) to'g'ri keladi.


Turar-joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog'liq.

Xorijiy investitsiya va kreditlar jamiga nisbatan ulushi, % da



2023- yil yanvar-dekabr oylarida **20 127,7** mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmining **64,3** % i xorijiy investitsiya va kreditlari hisobidan amalga oshirilgan. O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **147,2** % ni tashkil qilgan. Shundan xorijiy investitsiyalarning hajmi **12 959,7** mlrd. so'mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **64,4** % ni tashkil qildi. Xorijiy kreditlarning hajmi **7 168,0** mlrd. so'mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **35,6** % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlarning jamiga nisbatan ulushi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tog'-kon sanoati
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr energiyasi va gaz ta'minoti
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish
- Tashish va saqlash
- Qurilish
- Boshqa faoliyat turlari

Xorijiy investitsiya va kreditlarning asosiy hajmi elektr energiyasi va gaz ta'minotiga **9 500,9** (yoki **47,2** %), ishlab chiqarish sanoatiga **3 495,4** mlrd. so'm (yoki **17,4** %), tashish va saqlashga **3 249,7** mlrd. so'm (yoki **16,1** %), tog'-kon sanoatiga **1 557,8** mlrd. so'm (yoki **7,7** %), qurilishga **711,8** mlrd. so'm (yoki **3,5** %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **507,3** mlrd. so'm (yoki **2,5** %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilishga **143,8** mlrd. so'm (yoki **0,7** %) va boshqa faoliyat turlariga **961,0** mlrd. so'm (yoki **4,9** %) to'g'ri keladi.

Xorijiy investitsiya va kreditlar (mlrd. so‘mda)

		Shu jumladan:		
Jami investitsiya va kreditlar		To‘g‘ridan- to‘g‘ri investitsi- yalar	O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo‘lgan xorijiy kreditlar	Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
Jami	20 127,7	12 496,0	1 826,6	5 805,1
Buxoro sh	2317,1	535,8	1 455,6	325,7
Kogon sh	274	80,9	92,1	101,0
Olot	674,1	394,6	252,6	26,9
Buxoro	1005,9	890	-	115,9
Vobkent	479,9	-	-	479,9
G‘ijduvon	4009,5	3720,1	-	289,4
Kogon	1425,7	440,2	0,9	984,6
Qorako‘l	712,4	601,7	25,4	85,3
Qorovulbozor	2893,9	1937,1	-	956,8
Peshko‘	3786,9	3604,9	-	182,0
Romitan	2332,8	275,4	-	2 057,4
Jondor	174,5	3,5	-	171,0
Shofirkon	41,0	11,8	-	29,2

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tumanlar kesimida tahlil qilinganda, Buxoro shahri eng yuqori oʻrinni egalladi. Ushbu shaharda **6 073,4** mlrd. soʻmlik investitsiyalar oʻzlashtirilgan, oʼsish surʼati **99,5** % ni tashkil qildi. Keyingi oʼrinni G'ijduvon tumani egalladi, oʻzlashtirilgan investitsiyalar **4 704,1** mlrd. soʻm, oʼsish surʼati **5,0 m.** ni tashkil qildi. Peshku tumani **4 161,7** mlrd. soʻmlik asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bilan uchinchi oʼrinni egalladi. Ushbu hududda oʻzlashtirilgan investitsiyalarning oʼsish surʼati oʼtgan yilga nisbatan **10,3** marta koʼpaydi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida

	Ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Jami	15 442,9	131,1
Buxoro sh	20 806,6	97,6
Kogon sh	6 124,5	194,8
Olot	10 780,2	122,5
Buxoro	12 164,9	111,2
Vobkent	7 072,2	140,0
G'ijduvon	14 709,3	4,9 m.
Kogon	24 441,3	49,4
Qorako'l	7 323,2	146,7
Qorovulbozor	168 497,9	2,4 m.
Peshko'	32 013,3	10,1 m.
Romitan	26 731,2	80,4
Jondor	3 434,4	97,4
Shofirkon	2 181,7	79,2

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aholi jon boshiga taqsimotida eng yuqori ko'rsatkichni Qorovulbozor tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **168 497,9** ming so'mni, o'sish sur'ati **2,4 m.** ni tashkil qildi. Keyingi o'rinni Peshku tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **32 013,3** ming so'mni, o'sish sur'ati **10,1 m.** ni tashkil qildi. Romitan tumani uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **26 731,2** ming so'mni, o'sish sur'ati **80,4 %** ni tashkil qildi.

Obyektlarni ishga tushirish

2023- yilning yanvar – dekabr oylarida umumiy maydoni **1 492,3** ming kv.m. bo‘lgan **6 211** xonadonli **4 937** ta turar-joy ishga tushirildi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o’sish sur’ati **99,8** foizni tashkil etdi. Shundan umumiy maydoni **1 054,1** ming kv.m bo‘lgan **3 825** ta xonadonli **3 826** ta turar joylar qishloq joylariga to‘g’ri keladi. (O‘tgan yilga nisbatan o’sish sur’ati **96,6 %**) Turar-joylarni qurilishiga **1 965,3** mlrd. so‘m miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirildi.

Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi
Aloqa telefoni: **(65) 223-81-99**